

## JURNALISTIKADA SIYOSIY QARASHLAR

*Akbarova Shahzoda Alisher qizi**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti**Siyosatshunoslik yo'nalishi**3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jurnalistikada siyosiy qarashlar, faktoid va feyk tushunchalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ko'plab davlatlarning rahbarlari, yetakchilari ommaviy axborot vositalarida o'z faolligini yo'qotmasligi uchun bloglardan samarali vosita sifatida foydalanishga intilmoqda. Bu yaxshi albatta. Ammo axborot g'arazli kimsalar qo'lida xavfli vositaga aylanishini unutmaslik kerak. Agar mazkur omilga alohida e'tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlar ayrim kuchlar qo'lida asosiy qurolga aylanadi.

**Kalit so'zlar:** Veb-jurnalistika, faktoid va feyk insayder, manba, xabar, yangilik, fakt.

Tijorat tashkilotlari bugun marketing sohasini internet texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarsiz yuritib bo'lmashligini ta'kidlab, reklama, jamoatchilik bilan aloqalar (PR), marketing borasidagi siyosatlarini internet foydalanuvchilari tomon yo'naltirmoqdalar. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ko'plab davlatlarning rahbarlari, yetakchilari ommaviy axborot vositalarida o'z faolligini yo'qotmasligi uchun bloglardan samarali vosita sifatida foydalanishga intilmoqda. Bu yaxshi albatta. Ammo axborot g'arazli kimsalar qo'lida xavfli vositaga aylanishini unutmaslik kerak. Agar mazkur omilga alohida e'tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlar ayrim kuchlar qo'lida asosiy qurolga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo'ladi, balki xalqaro miqyosda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o'zaro bog'liqligini anglashga e'tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati faktchekingga bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda. Hozirgi vaqtda nafaqat onlayn OAV, balki turli xil tashkilotlar, kompaniyalar o'zlari bilan bog'liq bo'lgan yangiliklarni veb-saytlarida joylashtirmoqda. Mutaxassislarning fikricha, kelajakda internet OAV faoliyati bilan shug'ullanuvchi saytlar hamma an'anaviy OAV faoliyatini birlashtirgan holda ishlashi mumkin. Ya'ni gazeta, radio yoki TV tushunchasi keyinchalik yo'qolishi mumkin. Pupert Merdokning fikricha, yaqin kelajakda matbuot yo'qolib ketishi mumkin. Lekin internet OAV faoliyatning barcha turlarini egallab olishi

OAV yo`qolib kelishiga olib kelmaydi. Masalan, internet tom ma`nodagi gazeta yoki radio vazifasini bajara olmasligi tabiiydir. Negaki, misol uchun avtomobilda radio eshitish uchun internetga ulanish va u orqali radio eshitish vaqtni bekor o`tkazishdan dalolat beradi. Nima bo`lganda ham internet bugungi davrda har bir shaxsning talab va ehtiyojlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi asosiy global tarmoqdir. U orqali har birimiz o`z ishlarimizni tezda va oson bajarishga qodirmiz.

Salford universiteti xalqaro jurnalistika bo`yicha magistrlik dasturi rahbari Marek Bekerman<sup>1</sup> yolg`on xabarlar manipulyatsiya quroliga aylanib borayotgani va ularga qarshi kurash uchun feyklarga qarshi o`ziga xos samarali “dori“ hisoblangan faktcheking ustida ishlash kerak, deb hisoblaydi. Fikrini davom ettirar ekan, u yolg`on xabar tarqatishga qarshi universal vosita mavjud emasligi, har bir tuzilma o`z chora-tadbirlarini amalga oshirayotgani va jurnalistika sifatini oshirish yo`lida mehnat qilish lozimligini ta`kidlab o`tdi:

“– Yolg`on xabarlar fenomeni – bu aysberg yuqorisi bo`lib, uning pastki qismida boshqa muammolar ham yashiringan. “Feyk” so`zi – nafaqat professionallik masalasi, u allaqachon siyosiy tus olgan, shu munosabat bilan Buyuk Britaniya hukumati rasmiy hujjatlarda “yolg`on xabarlar“ degan tushunchadan foydalanishni taqiqladi”, – dedi Marek Bekerman.

Ma`lumotning asl yoki soxta ekanligi ajratish uchun o`quvchiga tanqidiy fikrlash zarur bo`ladi. Tanqidiy fikrlash – bu hodisalar, ashyolar va voqealarni mustaqil tahlil qilib, keyinchalik obyektiv xulosalarni ifodalash maqsadidagi fikr-mulohazalarni o`rtaga olib chiqish tizimidir. Tanqidiy fikr yuritish mantiq va sabab-oqibat munosabatlariga tayangan holda, ashyolarga xolis qarash, faktlarning zaif nuqtalarini va rostlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash jurnalistikada quyidagi sifatlarga ega bo`lishni ta`minlaydi:

- kuzatuvchanlik va mayda jihatlariga e`tiborlilik;
- axborotni diqqat bilan o`rganish;
- muhimini ikkinchi darajalidan ajratish;
- xabarning asosiy joylariga munosabat bildirish;
- o`z nuqtayi nazarini shakllantirish;
- o`z nuqtayi nazarini asoslash;
- fikrni to`g`ri bayon etish va ishontirish;
- faktlarni buzmay ifodalash;
- tahlil qilish va tanqid qilish;
- samarali qarorlar qabul qilish;
- mantiqiy fikr yuritish.

<sup>1</sup> <https://uk.linkedin.com/in/marek-bekerman-2b11672>

Jurnalistlar haqiqatni yolgʻon yoki notoʻgʻri maʼlumotlardan farqlash uchun oʻz majburiyatlariga jiddiy munosabatda boʻlishadi. Ammo bu faqat maʼlumot manbalarini va maʼlumotlarning ikki yoki uch marta tekshirilishini anglatmaydi. “Jurnalistlarga haqiqatan ham tanqidiy fikrlash qobiliyatlari kerak,-deydi Jonathan Xaber<sup>2</sup>. Jurnalistlar, oʻqituvchilar va boshqa malakali kasb egalari singari, tanqidiy fikrlashning baʼzi tushunchalari va jabhalarini ish jarayonida oʻzlashtirdilar. Faktlar jurnalistikaning qon tomiridir. Faktlarni tekshirish, maʼlumotlarning toʻgʻriligini tasdiqlaydi. Fakt – bu haqiqatan ham sodir boʻlgan biron bir voqeaning asl mazmunidir. “Fakt” soʻzi ostida shuningdek yon-atrofdagi borliq ifodasi, uning talqini ham tushuniladi. “Feyk xabarlar” asosan internet kanallari orqali tarqatilishi urf boʻlayotgan soxta xabarlar yoki maʼlumotlardan iboratdir. Faktoid – noxolis, uydirma, “faktsimon” xabar boʻlib, u maʼlum bir holat bilan bogʻliq umumiy axborot fonida “haqiqiy axborot” vazifasini oʻtaydi, oʻquvchilarni ishontiradi. Ayrim vaziyatlarda faktoid orginal xabarga juda oʻxshab ketadi. Chunki u bir qarashda haqiqatdek, sodir boʻlgan real voqeadek tuyuladi. U sifatli tayyorlanadi. Biroq boshqa bir holatlarda oddiy oʻquvchi ham bu “fakt”ning haqiqatdan yiroq ekanligini osonlikcha payqab olishi mumkin. Chunki u voqealar rivojiga mantiqan toʻgʻri kelmaydi. Shu sababdan ham tezda bu turdagi “uydirma xabar” oshkor boʻladi va koʻpchilik tomonidan inkor etila boshlanadi. Ammo har ikkala holatda ham faktoidlar “mualliflari” oʻz oldilariga aniq maqsad va vazifani qoʻygan boʻladilar. Yozuvchi-romanist Norman Meyler: «Faktoidlar – jurnal yoki gazetalarda paydo boʻlishidan oldin mavjud boʻlmagan faktlardir», -degan edi<sup>3</sup>. Jurnalistikada faktga reallikning aksi, kichik boʻlagi, fragmenti, uning ishonchli koʻrinishi deb baho beriladi. Shu sababdan jurnalist va faktcheker uchun voqea-hodisalarni obyektiv yoritishning oʻzi – faktlarni oʻquvchiga xolis yetkazishdan iboratdir. Taniqli shaxslar bayonotida uchraydigan faktajlar haqida gap ketganda bayonot matnida keltirilgan raqamli yoki hujjatli aniq faktlar tekshirilishi nazarda tutiladi.

Axborot maydonida soxta xabarlar va maʼlumotlar koʻpaymoqda. Feyk – keng maʼnodagi qalbakilikdir. Oʻzbek tiliga “qalbaki, toʻqima” deb tarjima qilinadi:

- Fotoshopda ishlangan fotosuratlar, baʼzida esa, videomuharrirda montaj qilingan yoki butunlay boshqa vaqtda va boshqa joyda olingan videoroliklar.
- Hamma ham haqiqatdan ajrata olmaydigan qalbaki yangiliklar (avvallari “utka”) deb atalardi.
- Ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa (qoidaga koʻra, mashhur) odamlar nomidan ochilgan sahifalar.

Feyk — ingliz tilidagi “fake”, yaʼni soxta, uydirma, yolgʻon soʻzidan olingan. Bu oʻzbek tiliga, ayniqsa, jurnalistlarimiz tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri kiritilmoqda. Biroq,

<sup>2</sup> <https://mitpress.mit.edu/author/jonathan-haber-21957/>

<sup>3</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B5%D0%B9%D0%BB%D0%B5%D1%80,%D0%9D%D0%BE%D1%80%D0%BC%D0%B0%D0%BD>

ayrim holatlarda tushunib-tushunilmasdan, norasmiy ma'lumot ma'nosida ham qo'llanilayapti. Bu noto'g'ri albatta. Umuman olganda feyk — asosan internet kanallari orqali tarqatilishi urf bo'layotgan soxta xabarlar yoki ma'lumotlardan iborat. Ingliz tilining eng nufuzli izohli lug'atlaridan biri — Collins “fake news” ni “yangilik sifatida tarqatiladigan yolg'on, ba'zan shov-shuvli axborot” sifatida tavsiflaydi. Qayd etish o'rinliki, jahon matbuotida 2016-yildan buyon ushbu so'z birikmasining ishlatilishi qariyb 400 foizga o'sgan. Shu sababli Collins tuzuvchilari “fake news”ni “2017-yilning eng mashhur so'zi” sifatida e'tirof etganlar. Feyk odatda ochiqdan-ochiq yolg'on faktlar, uydirma raqamlardan tashkil topadi. Shu sababdan ularni aniqlash va inkor etish professional nuqtayi nazardan qiyinchilik tug'dirmaydi. Aksariyat feyklar shov-shuvli, vahimali sarlavhalar ostida beriladi. Ammo feyklarning keng tarqalgan yana bir turi mavjudki, ular har tomonlama puxta tayyorlanadi. Go'yoki muallif rasmiy hujjatlar, tekshiruv-tahlil xulosalariga tayanadi. Ko'rinishidan haqiqiy materialdan farq qilmaydi. Ularni umumiy yangiliklar oqimi orasidan payqab olish qiyin. Aynan shuning uchun ham “puxta yolg'onlar” omma orasiga ancha chuqur kirib boradi. Hatto media va axborot savodxonligi bor kishini ham ishontira olish kuchiga ega<sup>4</sup>. Soxta xabarlar dezinformatsiyani vujudga keltiradi.

Dezinformatsiya – axborot yordamida ko'zlangan auditoriyani manipulyatsiya qilish jarayondir. Masalan, to'liq bo'lmagan ma'lumotni yoki to'liq deya yoki keraksiz ma'lumotlarni taqdim etish, kontekstni buzish, ma'lumotlarning bir qismini buzish orqali kimnidir yo'ldan ozdirishga harakat hisoblanadi. Bunday ta'sirning maqsadi har doim bir xil — o'quvchi manipulyatorga kerak bo'lgan tarzda harakat qilishiga erishish. Dezinformatsiyadan maqsad qilingan subyektning harakati manipulyator uchun zarur bo'lgan qarorni qabul qilish yoki manipulyator uchun noqulay qaror qabul qilishdan bosh tortish bo'lishi mumkin. Ammo har qanday holatda ham yakuniy maqsad ikkinchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatdir. Shundan kelib chiqib, dezinformatsiya- bu inson axboriy faoliyatining mahsuli, noto'g'ri taassurot qoldirishga urinish va shunga mos ravishda kerakli harakatlar yoki harakatsizlikka undash deb tushinish mumkin. Buning natijasida virtual olamda fishing, kiberbulling, hayping kabi muammolar vujudga kelishi mumkin.

Fishing – internet-firibgarlikning bir turi bo'lib, nomi inglizcha “fishing” – “baliq ovi” so'zidan olingan. Bunda firibgarlar sizga elektron pochta orqali xatda soxta havola yuborib, o'sha havola bo'yicha o'tishingizni so'rashadi. Unda ko'rsatilgan saytga kirsangiz, o'zingizning shaxsiy ma'lumotlaringiz login, parol va hokazolar ularning qo'lga o'tishi mumkin. Firibgar “qarmoqdagi qurbon” ni veb-saytga kiritishga urinish uchun ko'pincha qo'rqitish taktikasini ishlatadi. Misol uchun “Siz internetdagi qonun bilan taqiqlangan saytga tashrif buyurganingiz uchun falon so'm jarimaga tortildingiz.

<sup>4</sup> <http://beruniyalimov.uz/archives/566>

Jarimani bir sutka davomida ushbu saytdagi belgilangan hisob raqamiga o`tkazmasangiz jinoiy javobgarlikka tortilasiz.” kabi yolg`on xabarnoma keladi. Birinchi ko`rishda fisher tomonidan yasalgan veb-sayt odatda haqiqiy elektron tijorat bank saytiga o`xshab ko`rinadi, jabrlanganlarga ularning hisob raqamiga kirish va ularning bank kartasi PIN raqamini, ularning ijtimoiy sug`urta raqamini, foydalanuvchining ismini va hokazo kabi maxfiy moliyaviy ma`lumotlarni kiritish topshiriladi. Ushbu ma`lumotlar kiritilgan zahoti tezkor tarzda bank kartochkasi maxfiy ma`lumotlari firibgarlikda qatnashish uchun foydalanadigan hakkerga yuboriladi. Bank kartasidagi barcha pullar yechib olinadi va profilingiz viruslanadi.

Kiberbulling- bu raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bezorilik. Hujum ijtimoiy tarmoqlardan, xabar almashish platformalaridan, o`yin platformalaridan va mobil telefonlar raqamlaridan bo`lishi mumkin. U yo`naltirilgan nishonni qo`rqitish, g`azablantirish yoki sharmanda qilishga qaratilgan takroriy xatti-harakatlardir. Masalan,

- ijtimoiy tarmoqlarda kimningdir sharmandali fotosuratlarini yoki videolarini tarqatish yoki joylashtirish,
- xabar almashish platformalari orqali zararli, haqoratli yoki tahdidli xabarlar, rasmlar yoki videolarni yuborish,
- birovni taqlid qilish va ularning nomidan yoki soxta akkauntlar orqali boshqalarga yomon xabarlarni yuborish.

Ijtimoiy bezorilik va kiberbulling ko`pincha birga sodir bo`lishi mumkin. Ammo kiberbulling raqamli “iz” qoldiradi. Agar siz xavfsizligingiz yoki internetda sodir bo`lgan biror narsa haqida qayg`urayotgan bo`lsangiz, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishonch telefonlariga qo`ng`iroq qilib yordam so`rashingiz mumkin.

Albatta, ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralar va ijtimoiy hayot aralashtirib yuborilishining salbiy ta`sirlari ham bor. Misol tariqasida populizm, jamoat ongini manipulyatsiya qilish, “trollar fabrika” si, feyk xabarlar, insonlarning sha`ni va qadr-qimmatini, tashkilotlarning ishchanlik obro`sini qoralovchi axborotlarni tarqatish, kiberbulling kabilarni aytish mumkin. Yolg`on xabarlar ishonchli va obyektiv axborotlarga qaraganda tez tarqaladi va ba`zan katta zarar keltiradi. Yangilikdek tuyuladigan yolg`on xabarni tarmoq foydalanuvchilari tezroq ulashishga harakat qiladi, bu esa turli-tuman mish-mishlar, uydirmalar, agressiyani keltirib chiqaradi, davlat organlari, biznesga ishonchsizlik paydo qiladi. Xabar ulashishda birinchi bo`lish amalda qo`llaniladi: kim birinchi aytgan bo`lsa, u haq. Agarda yolg`on xabar ortidan rasman raddiya bildirilsa, bu odamlar unga ishonadi, degani emas. Bunda ratsional argumentlar hissiy qoliplarga yutqazadi. Britaniya siyosatchisi Uinston Cherchil aytganidek: “Haqiqat ishtonini kiyguncha, yolg`on dunyoning yarmini aylanib chiqishga ulguradi”<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> <https://kun.uz/uz/news/2020/08/01/ijtimoiy-tarmoqlar-muloqot-uchun-yoki-manipulyatsiya-va-xayp-uchun-maydonmi>

Ko`rinib turibdiki, mediasavodxonlikni oshirish va faktcheking bugungi internet jurnalistikasining eng dolzarb muammolaridan biridir. Faktcheking – shubha qilingan ma`lumotlarning to`g`riligini tekshirish jarayonidir. Bunda ma`lumotlar kamida ikkita mustaqil manbadan tekshirilishi zarur. Hozirgi kunda jamiyatda tarqalayotgan soxta xabarlarga qarshi kurashish maqsadida faktlarni tekshiruvchi saytlar faoliyati yo`lga qo`yilgan. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqdagi “Antifake.uz” kanali va “factchecking.uz” sayti O`zbekistonda soxta axborotlarga raddiya berish uchun rasmiy manba hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://kun.uz/uz/news/2020/08/01/ijtimoiy-tarmoqlar-muloqot-uchun-yoki-manipulyatsiya-va-xayp-uchun-maydonmi>
2. <http://beruniyalimov.uz/archives/566>
3. <https://mitpress.mit.edu/author/jonathan-haber-21957/>